


I bo'lim. Asosiy tushunchalar

Refleksiya

O'qituvchi refleksiyaning uch bosqichda amalga oshirishi mumkin. Birinchi bosqich og'zaki, bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilar darsda nimani o'rganganligini aniqlab, og'zaki so'rov o'tkazadi. Ikkinchi bosqichda bolalarga qo'shimcha rivojlantiruvchi bo'limdagi vazifani bajarishni taklif qilishingiz mumkin. Bu erda shakllarni namuna bo'yicha bo'yash kerak: kvadrat yashil rangda, doira ko'k rangda, uchburchak qizil rangda. Uchinchi bosqichda esa o'qituvchi darsni emotsional baholashni taklif qilishi mumkin: menga dars yoqdi yoki yoqmad, aynan nima yoqdi.



2-dars. 2-mavzu. O'xshashlik va farq

Darsning texnik xaritasi

Darsning maqsadi:	«yuqoriroq-pastroq», «kengroq-torroq», «kattaroq-kichikroq», «uzunroq-qisqaroq» so'zlari yordamida narsalarni o'lchamlari bo'yicha taqqoslash ko'nikmasini shakllantirish
Tayanch bilimlar:	hajm, katta-kichik, baland-past, uzun-qisqa, keng-tor
Erishiladigan natijalar:	umumiy belgi yordamida narsalarni taqqoslay olish
Foydalaniladigan metodlar	o'yin metodlari, taqqoslash va tahlil qilish metodi, munozara, o'zaro tekshiriladigan mustaqil ish, fan metodlari
Foydalaniladigan materiallar:	Darslik, turli o'lchamdagi rangli kartochka yoki stikerlar, rangli va oddiy qalamlar, ruchka
Darsning yo'l xaritasi:	1 2 3 4 5 6

Darsning borishi

Jalb qilish. Motivatsiya

Ushbu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni buyumlarni taqqoslashni o'yin tarzida tanishtiradi. Bolalar kundalik hayotda «kengroq», «torroq», «balandroq», «pastroq», «uzunroq», «qisqaroq» so'zlaridan muntazam foydalanganligi sababli, diqqatni faollashtirish o'yin ko'rinishga ega bo'lishi va ushbu tushunchalarni takrorlashga

O'qituvchi «Ortiqcha narsani toping» o'yini o'tkazishi mumkin, bunda bir guruh narsalar ichidan bittasi qolganlaridan uzunligi, kengligi, balandligi yoki kattaligi bilan farq qilishi kerak. Masalan, uzun qalamlar orasida bitta kalta qalam, past bo'yli o'g'il bolalar orasida bitta baland bo'yli bo'ladi.

Anglash. Bilimlarni aktallashtirish

Darsning bu bosqichida narsalarni o'lchamlari bo'yicha taqqoslash malakasi hayotda qanday qo'llanilishini ko'rsatish kerak. Bu uchun 1-topshiriqdan foydalanishingiz mumkin.

1

1-topshiriqning maqsadi: narsalarni bir nechta mezonlarga muvofiq taqqoslash, fanlararo aloqalarni o'rnatish qobiliyatini shakllantirish, nutqni, assotsiativ fikrlashni rivojlantirish; ona yurt bilan tanishtirish.



Televizion minora.
Toshkent



Islomxo'ja minorasi.
Xiva



Minorai Kalon.
Buxoro



Kalta Minor.
Xiva



Jarqo'rg'on minorasi.
Termiz



1. **“Balandroq”, “pastroq”, “kengroq”, “torroq”** so'zlaridan foydalanib, minoralarni taqqoslang. Rasmda qaysi minora boshqalaridan farq qiladi? Uni belgilang.

1-topshiriq yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarlikni davom ettiradi. Ushbu vazifada o'lchamlari bo'yicha beshta minorani taqqoslash kerak. Ishni boshlashdan oldin o'qituvchi har bir minora haqida qisqacha gapirib, hikoyani tegishli fotosuratlar va chizmalar bilan to'ldirishi mumkin.

Topshiriq bilan ishlash uchun minoralarning balandligini raqamlarda bilish shart emas, rasmga muvofiq taqqoslash kifoya. Masalan, Kalta Minor minorasi Minorai Kalondan pastroq, Toshkent televizion minorasi boshqa minoralardan balandroq.

Topshiriqning ikkinchi qismi bilan ishlashda (ortiqcha minorani aniqlash) bolalarni o'z fikrlarini tasdiqlash uchun to'g'ri dalillarni keltirishga o'rgatish kerak. Ushbu vazifaning bir nechta echimlari bo'lishi mumkin: ortiqcha minora Televizion minora bo'lishi mumkin, chunki u signallarni uzatish uchun yaratilgan, qolgan minoralar esa boshqa maqsadlar uchun; Jarqo'rg'on minorasi, chunki uning boshqa minoralardan farqi usti to'lqinsimon bo'lib, shakli gulga yoki ustidan mato to'lqin bo'lib to'kilib turganga o'xshaydi; Kalta Minor minorasi, chunki u eng keng va hokazo.

Yangi mavzuni tushuntirish

O'quvchilar narsalarni taqqoslashda kalit so'zlardan foydalanish qobiliyatini shakllantiradilar. Shuning uchun ushbu bo'limni kalit so'zlarni tahlil qilish bilan boshlash

2 **2-topshuriqning maqsadi:** narsalarni taqqoslashda kalit so'zlardan foydalanish qobiliyatini mustahkamlash, so'z boyligini oshirish.



2. "Uzunroq", "qisqaroq", "kengroq", "torroq" so'zlaridan foydalanib, yo'llarni taqqoslang. Rasmda yana nimani taqqoslash mumkin?



2-topshiriqda o'quvchilar ikkita o'xshash narsani topishlari va kalit so'zlar yordamida ularni bir-biri bilan taqqoslashlari kerak. Narsalarni taqqoslashda ular odatda ma'lum bir belgi bilan ajralib turishini tushuntirish mumkin. Misol uchun, agar yo'llarning joylashuviga qarasak, yuqori yo'l pastki yo'ldan qisqaroq deb aytiladi. Agar ularni rang bilan taqqoslasak, unda kulrang yo'l sariqdan qisqaroq. Agar shakli bilan taqqoslasak, unda to'g'ri yo'l egri yo'ldan qisqaroq. Xuddi shunday, o'quvchilar uyning chap va o'ng tomonida turgan ikkita daraxtni, ikkita bola — Jasur va Akmalni solishtirishlari mumkin.


Olingan bilimlarni mustahkamlash

Ushbu bosqichda o'quvchilar o'rganilgan kalit so'zlarni mustahkamlaydilar va ular bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishda qo'llaydilar.

3 **3-topshiriqning maqsadi:** narsalarni taqqoslash ko'nikmasini shakllantirishni davom qilish, qo'l motorikasini rivojlantirish.



3. Uzun tasmani bo'yang. Keng halqa chetiga bezak chizing. Baland daraxt tagiga maysa chizing.



3-topshiriq o'quvchilarga o'rganganlarini tekshirish uchun berilishi mumkin. O'qituvchi topshiriqni o'qiydi va o'quvchilar rasmlarni mustaqil ravishda bo'yashadi yoki to'ldiradilar. Uzun uchun naqshni oddiy tanlab va uni doskada oldindan chizib ko'rsatish tavsiya etiladi. Ishni tugatgandan so'ng, bolalarga daftarlarni o'zaro almashtirishga va topshiriqni qanchalik to'g'ri bajarilganligini tekshirish so'raladi.

4

4-topshiriqning maqsadi: «ko'proq - kamroq» tushunchalarini mustahkamlash, qo'l motorikasini rivojlantirish.



4. Bo'sh kataklarga gullarni shunday chizingki, natijada ular kichrayib borsin.




4-topshiriqda siz bo'sh kataklarga gullarni yopishtirishingiz kerak, har bir gul o'zidan oldingisidan kichikroq bo'ladi. Ushbu gullarni darslik oxiridagi stikerlar to'plamidan olish mumkin.

5

5-topshiriqning maqsadi: kataklar bilan ishlash ko'nikmasini mustahkamlash, katak chegaralari va uning o'rtasini aniqlash, imlo tartiblariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish, qo'l motorikasini rivojlantirish.



5. Qatorlarni davom ettiring.



Ushbu topshiriqda o'quvchilar qonuniyatga rioya qilgan holda qatorlarni davom ettirishlari kerak. Birinchi qatorda barcha elementlar ikki katakli to'rtburchaklardir. Ikkinchi qatordagi ketma-ketlik 3 katak va 1 katak uzunligi bo'lgan to'rtburchaklardan iborat. Uchinchi qatordagi vazifa esa sal murakkabroq, bunda oraliq katakning o'rtasini belgilash kerak.

Topshiriqni hammadan oldin bajarishga muvaffaq bo'lgan o'quvchilarga: ikkinchi qatordagi keng shakllarni yashil rangga, torlarini esa ko'k rangga bo'yash kabi qo'shimcha vazifa berish mumkin.

6

6-topshiriqning maqsadi: mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, ketma-ketlik tushunchalari bilan tanishtirish.



6. belgisi o'rnida qanday qovun bo'lishini toping?



O'quvchilar ketma-ketlikdagi qonuniyatni payqashlari kerak: katta qovun, kichik qovun, katta qovun, kichik qovun...  Shunday qilib, katta qovundan keyin keyingi kichik qovun bo'lishi kerak.

Agar vaqt ortib qolsa, faol o'quvchilar qo'shimcha rivojlantirish bo'limidagi vazifani bajarishlari mumkin: rasmning o'ng tomonini chapga mos keladigan tarzda bo'yash.

Rasmni chizib tugallang va bo'yang.



Refleksiya

Refleksiya darsda o'rganilgan bilimlarni og'zaki umumlashtirish va emotsional mustahkamlash bosqichlarini o'z ichiga olishi kerak. Birinchi bosqichda o'qituvchi bolalardan darsda nimani o'rganganlarini so'raydi, savollar beradi. Ikkinchi bosqichda emojilar, qarsaklar yoki boshqa vizual usullar bilan dars qanday o'tganiga o'z munosabatini bildirishni taklif qiladi.